

BOSHQARUVDA GENDER MUNOSABATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**Qalandarov Umid Ravshanbekovich****Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.17105207>**

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshqaruv tizimida gender munosabatlarning psixologik xususiyatlari ilmiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Jamiyatda erkak va ayol rahbarlarning boshqaruv jarayonida tutgan o'ri, ularning qaror qabul qilish uslublari, kommunikativ malakalari hamda shaxslararo munosabatlarga ta'siri psixologik jihatdan yoritilgan. Maqolada gender yondashuvning boshqaruv samaradorligiga ta'siri, rahbarlikda hissiy-intellektual muvozanatni saqlashning ahamiyati, shuningdek, gender stereotiplari va ularning boshqaruv psixologiyasiga ta'siri ilmiy asoslangan holda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari rahbarlik faoliyatida gender tengligi va psixologik muvozanatni ta'minlash orqali boshqaruvning sifatini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: boshqaruv, gender munosabatlari, psixologik xususiyatlar, rahbarlik, qaror qabul qilish, kommunikativ kompetensiya, gender tengligi.

Kirish.

Globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida zamonaviy boshqaruv innovatsion yondashuvni, jumladan tijorat va davlat tashkilotlarini samarali va moslashuvchan boshqarish uchun zarur bo'lgan zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga, ya'ni kompaniya strategiyasini optimallashtirish va tanlash, innovatsion jarayonlarni boshqarish, kadrlar siyosati, qisqa muddatli va uzoq muddatli biznes-rejalashtirish, boshqaruv muammolarini hal qilish uchun ma'lumotlar bilan ishlash madaniyati va raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalari, sanoat va tadbirkorlik faoliyatida raqamli transformatsiya jarayonlari doirasida foydalanish uchun mos texnologiyani tanlash, startaplar uchun biznes g'oyalar berish ko'nikmalagiga ega bo'lgan raqamli iqtisodiyotda biznesni boshqarish sohasida iqtisodiyotning zamonaviy talablariga javob beradigan, hamkorlikni rivojlantirishga va mamlakatni jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashishiga hissa qo'shishga qodir bo'lgan professional malakaga ega, raqobatbardosh, yuqori malakali boshqaruvni talab etadi.

O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy va iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish va gender tengligini ta'minlash uchun qonunchilik negizini mustahkamlash, shuningdek, institutsional bazani shakllantirish borasida muhim qadamlar qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2021 yil 22 fevralda BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashining 46-sessiyasidagi nutqida gender siyosati masalalari borasida mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida va ishbilarmonlik sohasida ayollarning rolini tubdan oshirishga qaratilgan ishlarni qat'iy davom ettirilishi ta'kidlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 martdagi «Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4235-son Qarori bilan Xotin-qizlarning gender kamsitilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida O'zbekiston Respublikasida Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi tuzildi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yilning 2 sentyabrida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida qabul qilingan «Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida»gi O'RBQ — 562-sonli Qonuni jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal

etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir.

Amerikalik psixolog Sh. M. Bern o'zining «Gender psixologiyasi» nomli kitobida erkak va ayolning ijtimoiy-psixologik farqlarining roli va ahamiyatini tushunishni sezilarli darajada boyitadigan tadqiqatlarni amalga oshirib, erkaklar va ayollarning xatti-harakati va psixologiyasini o'rganishda ularning ma'lum bir jinsga xos bo'lganligi haqidagi an'anaviy fikrlash tarzidan voz kechishga e'tiborni qaratdi.

Psixolog R. Rays o'tkazgan tajribaga ko'ra ayol rahbarlik qilgan kursantlar guruhi muvaffaqiyatini tasodifga yo'yishgan, erkak rahbar bo'lgan guruhdagi kursantlar esa muvaffaqiyatda aynan rahbarning qobiliyatini yetakchi deb ko'rsatishgan. Mazkur tajriba shundan dalolat beradiki, atrofdagi voqealarni baholash ko'p jihatdan ayni jamiyatda qabul qilingan norma va me'yorlarga bog'liq.

D. Shuls va S. Shulslar o'z tadqiqotlarida shunday xulosaga keldilarki, erkaklar va ayollar rahbarlikda bir xil samaradorlikka erishadilar.

Rus olimasi A. Ye. Chirikova fikriga ko'ra, ayol rahbar hamkorlar bilan tezda muzokaralarga kirisha oladi, o'z qo'l ostidagilar haqida doimo qayg'uradi.

Taniqli olima F. Denmark tadqiqotlari asosida boshqaruv sohalarida muvaffaqiyatga erishishda sezilarli jinsiy tafovutlar kuzatilmaydi degan xulosaga keldi. Ayol va erkak menejerlarning boshqaruv faoliyatidagi farq shundan iborat ekanki, ayollar jamoadagi insoniy munosabatlarga ko'proq e'tibor beradilar.

O. Shamieva o'z tadqiqotlarida rahbar ayollar shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rgangan. Muallifning fikricha, ayollar o'zlarining psixologik rivojlanishiga ko'ra ma'lum bir yosh davrlarida erkaklardan ustunlik qiladilar. Shuningdek, muallif rahbar ayol shaxsining ijtimoiy-psixologik tuzilmasida undagi tashkilotchilik qobiliyati, o'zini-o'zi baholash va rahbarlik faoliyatidan qoniqish holati yetakchi o'rinda turishini ta'kidlaydi.

I. Maxmudov boshqaruv samarasini jinsiy mansublik bilan bog'lash noto'g'riligi, bu o'rinda intellekt, qadriyatlar, shaxs xususiyatlari, ma'lumot darajasi, boshqaruv sohasidagi tajriba kabi ko'rsatkichlar ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

O'zbekistonda gender psixologiyasi ijtimoiy psixologiyaning o'rganilayotgan, tadqiq qilinayotgan yangi sohasi hisoblanadi. Gender psixologiyasi — insonning jamiyatdagi xatti-harakatlarini biologik jins va gender (ijtimoiy jins) nisbati bilan belgilangan munosabatlar bilan uyg'unlikda o'rganadi. Gender psixologiyasining bo'limlaridan biri bu rahbarlik (yetakchilik)ning gender psixologiyasidir va u erkak-rahbar va ayol-rahbar o'rtasidagi farqlarni, shuningdek hukmronlik va bo'ysunish munosabatlarini tadqiq qiladi.

Gender tahlilining ahamiyati nafaqat nazariy muammo, balki boshqaruv samaradorligini oshirishga imkon beradigan amaliy usul sifatida ham bir qancha yirik xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tashkilotlarning mutaxassislari tomonidan tasdiqlangan.

Psixologik nuqtai nazardan gender tushunchasi odamlarning «erkak va ayol» tafovutlarining mohiyatini yoritadi. Ijtimoiy psixologiyada «jins» tushunchasining o'zi biologik kategoriya bo'lgani uchun ham erkak va ayollar xislatlaridagi tafovutlarning biologik jihatdan bog'liqligini asoslashda gender atamasi ishlatiladi.

Gender tenglik jamiyat rivojida muhim bo'lgan ijtimoiy munosabatlarda dolzarb ahamiyatga ega ekanligi bugungi kunda yanada yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bugun oilada, jamiyatda, ayniqsa,

xotin-qizlarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratilayotgani natijasida ijtimoiy munosabatlarda ham, qonunchilikda ham katta o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Erkak va ayol rahbarga xos jinsiy psixologik farqning bo'lishi jamoa oldida turgan vazifani bajarish, ko'zlangan maqsadga erishishga ta'sir ko'rsatmaydi.

Shaxsning ko'pgina ishchanlik fazilatlarini jinsiy moyilliklar bilan emas, balki ijtimoiy qadriyatlar, xarakterdagi xususiyatlarga asoslanadi. Xususan, insoniy munosabatlarga e'tibor, ko'ngilchanlik, boshqaruvda demokratik tamoyillarga suyanish ayollarda ko'proq uchraydi va bu ko'rsatkichlar ma'lum ma'noda jamoa faolligiga ijobiy ta'sir etuvchi omillardir.

Rahbar ayollarda tashkilotchilik qobiliyatining namoyon bo'lishi va o'zini-o'zi rahbar sifatida baholashlari ularning rahbarlik faoliyatlaridan qoniqishiga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tashkilotchilik qobiliyati o'zini-o'zi rahbar sifatida baholash xususiyati bilan belgilanib, ularning determinatsiya koeffitsienti rahbarlik faoliyatidan qoniqishiga nisbatan ancha kamroqdir. Bundan rahbar ayollarda rahbarlik faoliyatidan qoniqishning qay holatda bo'lishini ularning tashkilotchilik qobiliyati va o'zini-o'zi rahbar sifatida baholashlari belgilab berishi kelib chiqadi.

Boshqaruv amaliyotida gender jihatlarini erkak va ayol psixikasini va aqlning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, jamoani va shaxsni boshqarishning har xil yondashuvlarining xususiyatlarini, ayniqsa, shaxslararo munosabatlarni o'z ichiga oladi. Ayollar va erkaklarning ishbilarmonlik va psixologik fazilatlarini taqqoslaydigan turli tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, tahlil qilingan bir qator ko'rsatkichlarda ma'lum farqlar mavjud.

Boshqaruvda erkaklarning gender yo'nalishi — tashqi muhitga, beqaror, doimiy yangilanadigan sharoitda o'zaro munosabatlarga yo'naltirilganligida, ayollarning gender yo'nalishi ayollarning ichki shaxslararo munosabatlarga, barqaror psixologik mikroiklimni saqlashga yo'naltirilganligida namoyon bo'ladi. Rahbarning gender roli boshqaruv rolini amalga oshirishda namoyon bo'ladi va boshqaruv funksiyalarini bajarish samaradorligida gender farqlari shakllanadi. Bu boshqaruv faoliyatining yetakchilik, maqsadlarni belgilash, xodimlarni rag'batlantirish, muloqot va qaror qabul qilish kabi jihatlarida yaqqol namoyon bo'ladi.

Zamonaviy boshqaruvda yuz berayotgan o'zgarishlarning tahlili shuni ko'rsatadiki, boshqaruv lavozimlarida erkaklar va ayollar sonining nisbati tez o'zgarib bormoqda. Hozirgi davrga xos bo'lgan ayol boshqaruv uslubining faol integratsiyasi gender tadqiqotlarining dolzarbligini tasdiqlaydi. Boshqaruv faoliyati sohasidagi gender tafovutlarining psixologik tadqiqotlar natijalarini qo'llashning dolzarbligi boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish uchun xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Абдуғаниева, Ш. Р. Гендер психологияси: назарий ва амалий масалалар. – Тошкент: Фан, 2019. – 214 б.
2. Жўраев, Р. Ҳ. Бошқарув психологияси. – Тошкент: Иқтисод-молия, 2017. – 288 б.
3. Кон, И. С. Гендер психологияси. – Москва: Аспект Пресс, 2015. – 320 с.
4. Бем, С. Гендер психологияси: назария ва тадқиқотлар. – Санкт-Петербург: Питер, 2016. – 272 с.
5. Хошимов, Қ. Ижтимоий психология. – Тошкент: Университет, 2020. – 198 б.

6. Butler, J. Gender Trouble: Feminism and the Subversion of Identity. – New York: Routledge, 2006. – 256 p.
7. Eagly, A. H., & Carli, L. L. Through the Labyrinth: The Truth About How Women Become Leaders. – Boston: Harvard Business School Press, 2007. – 307 p.
8. Hyde, J. S. Gender Similarities and Differences. – Annual Review of Psychology, 2005. – Vol. 56. – P. 293–324.

